

**OILA VA GENDER ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAHIMOVA DILDORA QODIRJONOVNA**

**OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN BOLALARNI TUTINGAN  
OILAGA MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi  
(oila va xotin-qizlar ta'limi yo'nalishi)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**UDK: 371.018**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим науки**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Rahimova Dildora Qodirjonovna**

Ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik mexanizmlari.....	3
---	---

**Рахимова Дилдора Кодиржоновна**

Педагогические механизмы адаптации детей, оставшихся без попечения родителей, к приемным семьям .....	23
--	----

**Rahimova Dildora Kodirjonovna**

Pedagogical mechanisms for the adaptation of children left without parental care to foster families.....	45
---	----

**E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ
-----------------------------

List of published works .....	49
-------------------------------	----

**OILA VA GENDER ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020. Ped/S.127.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAHIMOVA DILDORA QODIRJONOVNA**

**OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN BOLALARNI TUTINGAN  
OILAGA MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi  
(oila va xotin-qizlar ta'limi yo'nalishi)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2023.3.PHD/Ped4388 bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch til (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume))da Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti veb-sahifasi [www.moiti.uz](http://www.moiti.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalı ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Asqarova O‘g‘iloy Mamashokirovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xaydarova Shaxlo Narzullayevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Mirzayeva Faroxat Odiljonovna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD21/30.10.2020.Ped/S127.01. raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” soyat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko‘chasi, 25-uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: [mvaotii@exat.uz](mailto:mvaotii@exat.uz), [mvaotii@gmail.com](mailto:mvaotii@gmail.com)

Dissertatsiya bilan Oila va gender ilmiy tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan.). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko‘chasi, 25-uy. Tel.: (71) 267-05-36; faks: (71) 267-03-92; e-mail: [mvaotii@exat.uz](mailto:mvaotii@exat.uz), [mvaotii@gmail.com](mailto:mvaotii@gmail.com)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.M.Egamberdiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

**B.B.Mavlonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**A.Sh.Muxsiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahonda ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilalarga moslashtirish, ularni jismoniy, aqliy va ijtimoiy-emotsional rivojlantirish uyg‘unligini ta’minalash dolzarb hisoblanmoqda. Ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiylashtirishning adaptatsion texnologiyalari tizimini takomillashtirish asosida ularda oilaning ijobjiy obrazini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarga alohida e’tibor berilmaydi. Bunda, ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy munosabatlarda faolligini shakllantirish, ularning ijtimoiylashuv, shaxsiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik dasturlar, tarbiya texnologiyalari ishlab chiqilmoqda. Shu tariqa, ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilalarga moslashtirish orqali mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida va ilmiy tadqiqot markazlarida ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilalarga moslashtiruvchi tizimini modernizatsiyalash orqali bolalarni ham jismonan, ham ruhan rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-pedagogik yondashuv asosida ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalarda ijtimoiy moslashuv, mustaqil qaror qabul qilish, muloqotchanlik, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishga oid tadqiqotlar olib borilmaydi. Bunda, ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish, tutingan ota-onalarning munosabatlariga tayyorlash, bu jarayonda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, sog‘lomlashtirish, aqliy, psixologik, jismoniy rivojlantirish, maishiy-xo‘jalik, ro‘zg‘or yuritish bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirish va shu asosda jamiyatga samarili ijtimoiylashuvini ta’minalash vazifalarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish, ularning barkamol avlod sifatida shakllanishi hamda ijtimoiy moslashtiruvini ta’minalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “.....albatta, har bir go‘dak bu yorug‘ dunyoga kelar ekan, unga hamma ota-onasi bag‘rida yayrab o‘ssein, baxtli-saodatli bo‘lsin, deb tilak bildiradi. Lekin, taqdir taqozosi bilan ularning ayrimlari ota-onalarning mehridan benasib qoladi. Bunday holatda bu norasida bolalarning aslo aybi yo‘q ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz”<sup>1</sup> deb ta’kidlagan edi. Ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, yetim va ota-onalarning qaramog‘isiz qolgan bolalarda oilaparvarlikka xos sifatlarni shakllantirish modeli va pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/28/mehribonlik/>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagagi PF-175-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni, 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-3808-son, 2019-yil 11-fevraldagagi “Yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, PQ-4185-son, 2022-yil 4-avgustdagagi “Oilaviy bolalar uylari faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-345-sonli, 2021-yildagi 9-avgustdagagi “Yetim bolalar va ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi “Yetim bolalar va ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini tanlash, oila institutini mustahkamlash hamda ijtimoiy yetimlikning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 824-son, 2022-yil 17-yanvardagi “Yetim bolalar va ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 26-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur ish respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamizda ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va yetim bolalarni tarbiyalashning pedagogik, psixologik, ijtimoiy jihatlari, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalash, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalari O‘.Asqarova, E.A’zamxo‘jayeva, D.Madjidova, E.To‘xtamurodov, Sh.Xaydarovalar tomonidan tadqiq etilgan, oilada bolalarni ijtimoiylashtirishning falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik o‘ziga xosliklari N.Egamberdiyeva, O‘.Shamsiyev, D.Maxmudovalarning tadqiqotlarida ochib berilgan. Oilada bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash, oila etikasi va psixologiyasi, oila pedagogikasining dolzarb muammolari yuzasidan A.Musurmonova, A.Munavvarov, M.Maxmudova, M.Xalmatova va boshqalar tadqiqot olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘sligi (MDH) mamlakatlarida N.Dementeva, E.Minkova, V.Muxina, Ye.Rolotskaya A.Prioxjan, S.Savenkova, G.Satayeva, L.Shipitsina kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda maktab-internat tarbiyalanuvchilarini ijtimoiylashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, bolalar uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy-pedagogik moslashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, yetim bolalardagi deviant xulq-atvor korreksiyasi muammolari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlar G.Bemes, M.Brennen, V.Korsaro, Y.Kumasaka, X.Aiba, B.Maddox, E.Kenzilar tomonidan yetim va ota-onsa qaramog‘isiz qolgan bolalarda yuzaga keladigan emotsiyonal xulq-atvor va intellektual muammolar,

oila tipidagi bolalar uylarini tashkil etishning ijtimoiy-psixologik jihatlari o‘rganilgan.

Biroq ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, mazkur jarayonni amalga oshirishning pedagogik modeli va shart-sharoitlarini takomillashtirish zaruriyati saqlanib qolmoqda. Shunga ko‘ra, ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik tizimi va mexanizmini takomillashtirish yuzasidan maxsus ilmiy izlanishlar, ilmiy yondashuvlarga ehtiyoj yuzaga kelganligini ko‘rsatmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining SUZ800-13GRO60 “Intensive Summer Camp Teaching Project in Namangan” (2019-2022 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashuvning pedagogik mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashuv jarayoni belgilanib, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlaridagi tutingan ota-onalari 104 nafar hamda 146 nafar tutingan oila bolalari respondent sifatida tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish, so‘rovlardan, test o‘tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik metodlardan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari oila va oilaviy hayotga ijobiy munosabatni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan kognitiv, ehtiyojli-motivatsion, emotsional, faoliyatli-amaliy komponentlarning integrativligini ta’minlash asosida ustivorlik berilgan;

ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik modeli komponentlarni transformatsiyasi, milliy tarbiya metodlarining (ibrat, na’muna, daxldorlik, hamdardlik, bosiqlik, mulohazakorlik) kundalik turmush tarziga ta’siri barqarorligini ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish jarayoni ota-onal munosabatlarini hisobga olish asosida tutingan oilalarni “shakllantirish”, kundalik hayotiy faoliyatni moslashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish shakllarini (oilaviy kengashlar, katta oilaviy kengash) o‘zgartirish kabi pedagogik shart-sharoitlari tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning permanentlikka (doimiy, uzluksiz) asoslangan hamkorlikdagi faoliyatini kengaytirish orqali takomillashtirilgan;

ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilgan oila haqidagi nazariy bilimlarga egalik, oila xo‘jaligiga doir amaliy ko‘nikmalarning shakllanganligi, hayotiy muammolarni to‘g‘ri baholay olish, shaxslararo muloqotga kirishish, maktab ta’limiga moslashuv, milliy an‘analar, yaqin qo‘shnichilik, muruvvat va sahovat fazilatlarining praksiologik imkoniyatlarini real baholanishiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari aniqlangan hamda ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning takomillashtirilgan pedagogik modeli amaliyotga joriy etilgan;

tutingan oila tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

“Oilaviy tarbiya” fakultativ mashg‘ulotlar dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish jarayonining samaradorligini oshirishga doir ijtimoiy-pedagogik tamoyil, metod va shart-sharoitlar, ilmiy metodik taklif va tavsiyalardan pedagogika, psixologiya yo‘nalishidagi bakalavr talabalari hamda tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslari uchun “Oila pedagogikasi” nomli o‘quv qo‘llanmani yaratishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq “ijtimoiylashuv”, “ijtimoiy ong”, “oilaga munosabat”, “oilaviy hayotga yo‘nalganlik”, “oilaviy urf-odatlar tizimi”, “ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarda oilaning ijobiy obrazini shakllantirish” tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritib berilganligi, ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish omillari va mazkur jarayon samaradorligini oshirishga doir yondashuvlarning aniqlashtirilganligi, bolalarni tutingan oilaga moslashtirishga doir ijtimoiy-pedagogik tamoyillarining asoslanganligi, ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari aniqlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ota-onada qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik modeli va uni amaliyatga joriy etishning didaktik ta’minoti ishlab chiqilganligi, tutingan oilalarda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish, tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash va rejalashtirish, o‘quv jarayoniga tatbiq etishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ota-onada qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

ota-onada qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari oilaparvar shaxsga xos bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, oila va oilaviy hayotga ijobjiy munosabatni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan kognitiv, ehtiyojli-motivatsion, emotsiyonal, faoliyatli-amaliy komponentlarning integrativligini ta’minlash asosida aniqlashtirishga doir tavsiyalardan ota-onada qaramog‘isiz qolgan bolalarda oilaviy qadriyatli munosabatlarni shakllantirishda foydalanilgan (“Oila pedagogikasi” o‘quv qo‘llanma uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug‘i 232-682-sonli nashr ruxsatnomasi). Natijada ota-onada qaramog‘isiz qolgan balalarni tutingan oilada tarbiyalashga oid manbalardan foydalanish imkoniyati boyitilgan;

ota-onada qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik modeli komponentlarni transformatsiyasi, milliy tarbiya metodlarining (ibrat, na’muna, daxldorlik, hamdardlik, bosiqlik, mulohazakorlik) kundalik turmush tarziga ta’siri barqarorligini ta’minlash asosida aniqlashtirishga doir tavsiyalar “Oila tarbiyasi” nomli o‘quv dasturining mazmuniga singdirilgan (Maktabgacha va maktab ta‘limi huzuridagi Respublika ta‘lim markazining 2022-yil 30-dekabrdagi 01/11-02/02-1908-son ma’lumotnomasi). Natijada ota-onada qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini milliy-ma’naviy rivojlantirishga xizmat qilgan;

ota-onada qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish jarayoni ota-onada munosabatlarini hisobga olish asosida tutingan oilalarni “shakllantirish”, kundalik hayotiy faoliyatni moslashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish shakllarini (oilaviy kengashlar, katta oilaviy kengash) o‘zgartirish kabi pedagogik shart-sharoitlari tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning permanentlikka (doimiy, uzlucksiz) asoslangan hamkorlikdagi faoliyatini kengaytirish orqali takomillashtirishga doir takliflar Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi 02-01/33-sonli “Xotin-qizlarning asosiy hayotiy qadriyatlariga erishish yo‘llarining sotsiologik tadqiqot” nomli loyihami amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (Maktabgacha va maktab ta‘limi huzuridagi Respublika ta‘lim markazining 2022-yil 30-dekabrdagi 01/11-02/02-1908-son ma’lumotnomasi). Natijada tutingan oila muhitiga tarbiyalanuvchilarni moslashish samaradorligini oshirishga erishilgan;

ota-onada qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik tizimini rivojlantirishga yo‘naltirilgan oila haqidagi nazariy bilimlarga egalik, oila xo‘jaligiga doir amaliy ko‘nikmalarning shakllanganligi,

hayotiy muammolarni to‘g‘ri baholay olish, shaxslararo muloqotga kirishish, maktab ta’limiga moslashuv, milliy an’analar, yaqin qo‘shnichilik, muruvvat va sahovat fazilatlarining praksiologik imkoniyatlarini real baholanishiga doir taklif va tavsiyalar “Oila pedagogikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 29-may, 232-sonli buyrug‘i asosida berilgan nashr nusxasi). Natijada ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarning jamiyatga ijtimoiylashuvi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjuman, shu jumladan, 4 ta respublika va 6 ta xalqaro konferensiya muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jumladan, 8 tasi respublika va 9 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 136 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsyaning “**Ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning tarixiy, me’yoriy-huquqiy asoslari hamda pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritib berilgan.

Ota-onal qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishga doir adabiyotlar tahlili asosida “*ijtimoiy yetimlik*”, “*tutingan oila*”, “*ijtimoiy moslashuv*” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish muammoning nazariy-metodologik yechimini topishga xizmat qildi.

*Ijtimoiy yetimlik* tushunchasini tahlil qilib, professor N.M.Egamberdiyeva “yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, farzandidan voz kechish, tashlab ketish, ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlarning farzandlari, sud tomonidan layoqatsiz deb tan olingan ota-onalarning farzandlari (ruhiy kasalliklari bo‘lgan), ozodlikdan mahrum etish joylarida bo‘lgan yoki qayerdaligi noma’lum bo‘lganligi sababli ota-onal qaramog‘idan mahrum bo‘lgan balog‘atga yetmagan bolalar ijtimoiy yetim”<sup>2</sup> ijtimoiy maqomiga ega bo‘lishlarini ta’kidlagan.

---

<sup>2</sup> Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika: darslik / Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – B. 140-141.

*Tutingan oila* – bu bolaning qondosh ota-onasidan tashqari boshqa oila a’zolari tomonidan tarbiyaga olinishi, ularga g’amxo’rlik qilinishi va ma’naviy-axloqiy tarbiya berilishi jarayonini anglatadi. Tutingan oila bolaga mehr-muhabbat, o’ziga xos muhit va tarbiya berib, uning to‘laqonli rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu tushuncha ijtimoiy tarbiya tizimida yetim yoki ota-onalarni qaramog‘isiz qolgan bolalarni himoya qilish va ijtimoiy moslashtirish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega<sup>3</sup>. Ota-onalarni qaramog‘isiz qolgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon hisoblanib, unda gender (erkak va ayol), shaxsiy-individual, ijtimoiy-axloqiy rivojlanishi sodir bo‘ladi. Ijtimoiy moslashuvning mazmun-mohiyatiga ko‘ra, ijtimoiy munosabatlar atrofdagi yaqin insonlar bilan o‘zaro munosabatlar, ta’im-tarbiya asosida shakllanadi.

*Ijtimoiy moslashuv* – bu inson tomonidan yangi ijtimoiy muhitni, ma’lum bir jamiyatning me’yorlari va qadriyatlarni rivojlan Tirish, o‘z hayot tarzini tashkil qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs holatining integral ko‘rsatkichidir. U boshqalarning xatti-harakatiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin<sup>4</sup>.

Ilmiy-pedagogik manbalarda tutingan oila asosan quyidagi jihatlari bilan izohlanadi<sup>5</sup>.

– Tarbiya muhiti: tutingan oila bolaning shaxsiy ehtiyojlarini qondiruvchi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantiruvchi ta’lim-tarbiya instituti sifatida qaraladi.

– Jamoaviylik va ijtimoiylik: tutingan oila muayyan ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni o‘zida aks ettirgan holda bolani jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

– Mehr-oqibat va xavfsizlik: tutingan oila bolaning ruhiy-asab va ijtimoiy-emotsional ehtiyojlarini qondirish orqali uning ijtimoiylashuvini qo‘llab-quvvatlaydi.

Tadqiqot muammosini nazariy o‘rganish va tahlil etish asosida ota-onalarni qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishga quyidagicha ta’rif berish mumkin.

*Ota-onalarni tutingan oilaga moslashtirish* – bu, tutingan ota-onalar, pedagog, psixologlar, jamoatchilik ko‘magi asosida ijtimoiy yetim bolaning tutingan oila muhitiga jismoniy, ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy, ijtimoiy va psixologik integratsiyalashuvini ta’minlaydigan muhim pedagogik jarayondir. Bu jarayon davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bolaning shaxs sifatidagi rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va uning yangi oilaviy sharoitga muvofiq moslashishini ta’minlaydi. Respublikamizda bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” gi O‘RQ-139-sodan Qonuni, 2014-yil 2-yanvardagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi O‘RQ-364-sodan Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-avgustdagagi “Oilaviy bolalar uylari faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”

<sup>3</sup> Сафаров И. Тарбия назарияси ва амалиёти / Дарслик – Т.: Ўқитувчи, - 486 б; 2020.; Назаров Б. Оила педагогикаси асослари. – Т.: Фан, 2018, - 216 б.

<sup>4</sup> Сафаров И. Тарбия назарияси ва амалиёти. – Т.: Ўқитувчи. 2020.; Назаров Б. Оила педагогикаси асослари. – Т.: Фан. 2018.

<sup>5</sup> World Health Organization. (2017). Alternative Care and the Rights of the Child. Geneva: WHO.

PQ-345-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgustdagи “Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 451-son qarorilarning me’yorlari muhim o‘rin tutadi.

Ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy moslashtirish, ular yashayotgan jamiyatning qadriyatları va me’yorlarini o‘zlashtirishdan iborat. Moslashuvning namoyon bo‘lishi yetim bolalarning tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatidan va ularning faol ishlaridan iboratdir. Ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, yetim bolalarning shaxsiy rivojlanishi oilada voyaga yetgan bolaning rivojlanishidan ancha farq qiladi. Psixologik tadqiqotlar (M.K.Bardishevskaya, A.V.Bikov, A.I.Zaxarov, Ye.A.Strebleva, N.G.Travnikova, E.A.Minkova, L.Y.Oliferenko, Ye.E.Chepurnix, T.A.Shilova, T.I.Shulga) va umumlashtirilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarning umumiyl jismoniy va aqliy rivojlanishi, oilada voyaga yetgan tengdoshlarining rivojlanishidan farq qilad. Ularda irlsiy va psixosomatik kasalliklar, hissiy beqarorlik, giperaktivlik, qo‘zg‘alish jarayonlarining ustunligi, charchoq, diqqatining pasayishida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning mayjud holatini o‘rganishda tutingan oilalarning imkoniyatlari, psixologik muhiti, o‘zaro munosabatlari va sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarni va mazkur sohadagi tajribalarni tahlil qilish asosida ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishda ijtimoiy hamkorlik dasturlarini ta’minlash muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv garovi ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik tizimini rivojlantirish mazmuni, ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish texnologiyasi hamda metodik ta’minoti yoritib berilgan.

Tadqiqot va kuzatishlar natijasida, tutingan oilada bolalarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirishning asosiy muammosi, bolalarning mustaqil ravishda “munosib inson-fuqaro-oila a’zosi” pozitsiyasini yarata olmasligi aniqlandi.

Ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish jarayoni quyidagi asosiy pedagogik komponentlar asosida tashkil etildi:

- tarbiyaviy: bolaning shaxsiy xislatlari va jamiyatga moslashuvini qo‘llab-quvvatlash, uning axloqiy-ruhiy holatini tarbiyalash.
- ta’limiy: bolaning ta’lim olishga bo‘lgan imkoniyatlarini oshirish, unda zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish orqali mustaqil hayotga tayyorlash.
- ijtimoiy: bolaning yangi ijtimoiy rollarga (oiladagi roli, maktabdagi roli va jamoadagi vazifalari) moslashishini ta’minlash.
- madaniy-ma’naviy: bolada milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan hurmatni shakllantirish.
- hamkorlik: tutingan oila, mahalla, ta’lim muassasasi va ijtimoiy xizmatlar (Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari) o‘rtasida uzviy hamkorlik tizimini tashkil etish.

Tutingan oilada bolaning moslashuvi samarali bo‘lishini ta’minlash uchun quyidagi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi:

1. Ma'naviy-axloqiy muhit yaratish: tutingan oilada o'zaro ishonch, hurmat, mehr va ishonch muhiti, bola uchun psixologik jihatdan qulay sharoitlarni ta'minlash, uning oilada o'zini xavfsiz his qilishini ta'minlovchi muloqot strategiyalarini ishlab chiqish.

2. Ijtimoiy hamkorlik: davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda bola va oila uchun yordam tizimini tashkil etish.

3. Ijtimoiy moslashuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlash: bolaning tutingan oila va ta'lim muassasalariga moslashuvi uchun maxsus dasturlar, uning ta'lim muassasasiga moslashishini ta'minlovchi pedagogik dasturlarni amalga oshirish.

4. Pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash: bolalar va tutingan oila uchun doimiy ravishda maslahat va pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish xizmatlari tashkil etish.

Ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish bo'yicha ish olib borish tarbiyaning insonparvarligi, tarbiyaning madaniyatga muvofiqligi, tarbiyaning variativligi, tarbiyaning namunaviyligi, ijtimoiy tarbiyada birqalikdagi faoliyat, tarbiyaning davomiyligi tamoyillari asosida tashkil etiladi.

Ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni tutingan oilaga moslashtirishda quyidagi asosiy pedagogik omillarga tayaniladi:

1. Psixologik moslashuvni ta'minlash – tutingan ota-onan va bola o'rtasida hissiy bog'liqlikni shakllantirish, bolaning oilaviy muhitga nisbatan ishonchini oshirish (individual suhbatlar, psixologik qo'llab-quvvatlash ishlari).

2. Tutingan ota-onan va bola munosabatlarini rivojlantirish – ular o'rtasida o'zaro mehr-oqibat va ishonch muhitini yaratish (oilaviy an'analar, uy ishlarini bajarish, birqalikda vaqt o'tkazish).


3. Individual yondashuvni ta'minlash - bolaning ehtiyojlarini, qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, tarbiya jarayonini ularga mos ravishda tashkil etish (bolaning shaxsiy portfoliosi asosida reja tuzish, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish).

4. O'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish - bola ta'lim-tarbiya olishida duch keladigan muammolarni yengishi uchun oilaviy tarbiya va o'quv-tarbiya jarayonlarini uyg'unlashtirish (o'qituvchilar, tarbiyachilar va tutingan ota-onalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish).

5. Milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rgatish - bola tutingan oilanining an'analarini va qadriyatlarni qabul qilishi uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash (tutingan oilanining turli an'analarini va bayramlarida bolani faol ishtirok ettishni ta'minlash).


6. Qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam berish - bola va tutingan oila o'rtasida kelib chiqadigan qiyinchiliklarni pedagogik jihatdan yengish (nizolarni yengishga oid psixologik treninglar, maslahatlar va o'zaro murosaga erishish usullarini rivojlantirish). Ushbu pedagogik omillar asosida ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish jarayoni samaradorligi ta'minlanishi mumkin.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari asosida ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Ota-onada qaramog'isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning pedagogik modeli**

Tadqiqot doirasida, ota-onas qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish mexanizmi quyidagi tartibda ishlab chiqildi (2-rasm).



## **2-rasm. Ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish mexanizmi**

Tadqiqotda ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish tizimli modelini ishlab chiqishda tutingan oila tarbiyalanuvchisi shaxsining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish, oilaning ijobiy obrazini shakllantirish, mustaqil hayotga tayyorlashda ijtimoiy-pedagogik vazifalar belgilandi.

Tadqiqot jarayonining asosiy yo‘nalishi shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik qarashlar va mehr-oqibat kompetensiyasini shakllantirish asosida ishlab chiqilgan “Oilaviy tarbiya” dasturi yordamida bolada oilaning ijobiy obrazini shakllantirish hamda uning ijtimoiy moslashuviga yordam berishni tashkil etishdan iborat bo‘ldi.

“Oilaviy tarbiya” dasturining asosiy maqsadi oilaning ijobiy obrazini shakllantirish (bolada oilaning mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va ko‘makka asoslangan ijobiy tasavvurini tarbiyalash, bu bolaning ijtimoiy muhitda o‘ziga bo‘lgan ishonchini va sog‘lom munosabatlar o‘rnatish qobiliyatini rivojlantiradi) va ijtimoiy moslashuvni (bolaning tutingan oilaga, jamiyatga moslashuvini ta’minlash va uning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat) ta’minlashdan iborat.

Mazkur dastur quyidagi pedagogik-psixologik yo‘nalishlar asosida amalga oshirildi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv-tutingan bolaning shaxsiy ehtiyojlar, qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiya berish. Bu yondashuv bolaning shaxsiy rivojlanishi uchun eng samarali usul hisoblanadi.

2. Mehr-oqibat kompetensiyasini shakllantirish – tutingan ota-onalarning bolaning ehtiyojlarini tushunish, uning his-tuyg‘ularini qadrlash va qo‘llab-quvvatlash orqali o‘zaro hissiy bo‘g‘langanlikni shakllantirish. Bu tutingan ota-onalarning va bola o‘rtasidagi munosabatlarning sog‘lom rivojlanishi uchun asos bo‘ladi.

Ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish jarayonida bolaning shaxsiy rivojlanishi uchun oila muhitining ahamiyati, insonparvarlik va mehr-oqibat tamoyillariga asoslangan tarbiya, bolaning ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishda ijobiy muhit yaratish kabi pedagogik g‘oyalar qo‘llanildi.

“Oilaviy tarbiya” dasturi tajriba-sinov maydonlarida joylashgan mahallarda tashkil etilgan “Oilaviy klublar” doirasida tatbiq etildi. Ushbu faoliyatning mazmun-mohiyati shundaki, bolalarni oilaviy hayotga va jamiyatga tayyorlashdan iborat. “Oila vakilini tarbiyalash” mashg‘ulotlari orqali oila va uning vazifalari, oila a‘zolarining rollari, oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar shakllantirildi. Tadbirlarning yuqorida keltirilgan loyihalar asosida tashkil etilishi ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishga yordam beradi.

Qo‘llanilgan individual va oilaviy ish shakllari: mehnat ishi, bayramlar, davra suhbatlari, bahsli munozaralar, turli tanlov va musobaqlar, ko‘rgazmalarga tashrif hamda sayohat va taqdimotlar o‘tkazish kabilari. Tadbirlarning muayyan ijtimoiy-pedagogik loyihalarga asoslanganligi ular samaradorligini oshirish bilan birga, tarbiyalanuvchilarning qiziqish va faolliklarini ta’minladi.

Ushbu loyihalar asosida bolalarni o‘z o‘tmishi va hozirgi holatini bilishiga hamda anglashiga, shuningdek, kelajagini rejalashtirishiga va qurishiga sharoit yaratildi. Ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish bo‘yicha oila bilan ta’lim-tarbiyaviy ish tizimini pedagogik tashkil etish jarayonini takomillashtirishni taqozo etadi.

Dissertatsiyaning “**Ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirishning samaradorligi**” deb nomlangan uchinchi bobida bolalarni tutingan oilaga moslashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish yo‘llari hamda tajriba-sinov ishlari natijalari va tahlili yoritib berilgan.

Ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari uch bosqichni o‘z ichiga oldi: birinchi bosqich-aniqlovchi (2021-yil), ikkinchi bosqich-shakllantiruvchi (2022-yil), uchinchi bosqich-ta’kidlovchi (2023-yil).

Ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashuv muammosining ikki jihatiga e’tibor qaratildi:

Birinchi jihat, oilaviy hayotga oson moslasha oladigan hamda qondosh oilasida yashashga ko‘nikadigan bolani tarbiyalash;

Ikkinci jihat, keljakda to‘kis oila quradigan, to‘laqonli hayot yarata oladigan bolani tarbiyalash.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida respondent tutingan ota-onalar, ta’lim muassasalarini tarbiyachi-pedagoglari hamda psixologlar va bolalarning fikrlari asosida metodika mazmunan boyitib borildi. Ta’kidlovchi tajriba davrida tajriba avvalidagi va tajriba so‘nggidagi natijalar o‘zaro qiyosiy o‘rganildi. Ta’kidlovchi tajriba natijalarini o‘rganishda ham asoslovchi tajriba davrida bo‘lgani kabi tegishli ko‘rsatkichlar ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilaga moslashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha aniqlangan mezonlar bir-biri bilan solishtirildi.

### **1-jadval**

#### **Ota-onan qaramog‘isiz qolgan bolalarni tutingan oilalarga moslashtirishning tajribadan avvaliga (Ta) va tajriba so‘nggi (Ts)dagi ma’lumotlarning umumiyligi jadvali**

Me’zonlar	Tajriba ma’lumotlari (146 nafar respondent)					
	Yuqori		O’rtacha		Past	
	Ta	Ts	Ta	Ts	Ta	Ts
1 Oila va oilaviy hayot to‘g‘risidagi ma’lumotlarga egalik	42	70	54	54	50	22
2 Qiyinchiliklarni mustaqil yengib o‘tish va individual muammolarni hal etish ko‘nikmasi	40	71	56	52	50	23
3 Oiladagi xo‘jalik ishlarini bila olish ko‘nikmasi	41	73	57	51	48	22
4 Mehnat va ijodiy faoliyatga mas‘uliyatli munosabat	43	72	53	54	50	20
5 Oilada yetakchilik sifatlarining shakllanganligi – tashabbuskorlik va taskilotchilik ko‘nikmalari	39	69	52	52	55	25
6 Oilada bo‘sh vaqtdan samarali foydalana olishi	40	71	58	55	48	22
Umumiy o‘rtacha	41	<b>71</b>	55	<b>53</b>	50	<b>22</b>

